

## XORAZM VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2020-yil yanvar-fevral)


2020-yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 1 147 296,5 mln. soʻmni tashkil etib, oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 2,9 % ga oʻsdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 222 295,0 mln. soʻmni (oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 79,2 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 925 001,5 mln. soʻm (oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 110,9 %) ni tashkil etdi.

### HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA TOVAR AYLANMASI HAJMI HAMDA OʻSISH SURʼATLARI

	Jami (mln. soʻm)	Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Yirik korxonalar (mln. soʻm)	Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan, % da
<b>Viloyat</b>	<b>1 147 296,5</b>	<b>102,9</b>	<b>222 295,0</b>	<b>79,2</b>
<i>shaharlar:</i>				
<b>Urganch</b>	427 223,0	91,7	185 901,5	77,1
<b>Xiva</b>	38 900,0	110,7	3 799,5	185,4
<i>tumanlar:</i>				
<b>Bogʻot</b>	42 256,4	94,5	252,5	4,7
<b>Gurlan</b>	101 934,2	145,2	1 325,2	83,8
<b>Qoʻshkoʻpir</b>	41 862,4	105,3	717,4	87,0
<b>Urganch</b>	116 617,1	110,3	10 814,3	131,3
<b>Hazorasp</b>	122 863,3	107,1	3 880,3	103,6
<b>Xonqa</b>	75 645,3	102,6	9 974,9	75,6
<b>Xiva</b>	26 278,4	105,9	201,6	61,1
<b>Shovot</b>	62 324,1	110,5	4 204,3	123,5
<b>Yangiariq</b>	59 132,0	110,2	1 083,8	137,4
<b>Yangibozor</b>	32 260,3	106,3	139,7	124,2


Dastlabki maʼlumotlar\*

## HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI (mlrd. so`m)



2020-yilning yanvar-fevral oylarida viloyatning deyarli barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining oʻsish surʼatlari kuzatilib, nisbatan yuqori oʻsish surʼatlari Gurlan tumani, Xiva shahri, Shovot tumani va Urganch tumanlarida qayd etildi.

## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASINING OʻZGARISH SURʼATLARI, % da




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 79,2 % ni hamda 222 295,0 mln. soʻmni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 19,4 % ulushiga toʻgʻri keladi.


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga koʻra, 925 001,5 mln. soʻmni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 10,9 % ga oʻsdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 80,6 % ga teng kelmoqda.

## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI. % da

2019-YIL  
YANVAR-FEVRAL



2020-YIL  
YANVAR-FEVRAL



■ Yirik korxonalar.  
■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari.

### CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING ULUSHI, % da



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'qiyicha Yangibozor (99,6 %), Bog'ot (99,4 %), Xiva (99,2 %) va Gurlan (98,7 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 19,4 % ni tashkil etib, eng katta ulush Urganch shahri (43,5 %), Xonqa tumani (13,2 %) va Xiva shahrida (9,8 %) kuzatilgan.

### KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI VA YIRIK KORXONALARNING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI HAJMI

	Yirik korxonalar (mln. so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari (mln. so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da
<b>Viloyat</b>	<b>222 295,0</b>	<b>79,2</b>	<b>925 001,5</b>	<b>110,9</b>
<i>shaharlar:</i>				
<b>Urganch</b>	185 901,5	77,1	256 485,0	107,4
<b>Xiva</b>	3 799,5	185,4	35 100,5	106,1
<i>tumanlar:</i>				
<b>Bog'ot</b>	252,5	4,7	42 003,9	106,8
<b>Gurlan</b>	1 325,2	83,8	100 609,1	146,7
<b>Qo'shko'pir</b>	717,4	87,0	41 144,9	105,7
<b>Urganch</b>	10 814,3	131,3	90 639,1	108,5

Hazorasp	3 880,3	103,6	123 784,5	107,3
Xonqa	9 974,9	75,6	65 670,3	108,5
Xiva	201,6	61,1	21 275,5	106,5
Shovot	4 204,3	123,5	58 119,9	109,6
Yangiariq	1 083,8	137,4	58 048,2	109,7
Yangibozor	139,7	124,2	32 120,6	106,2

### HUDUDLARDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING JAMI CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, % da



2020-yil yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 619,8 ming. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan

1,2 % ga ko'paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2020-yilning yanvar-fevral oylarida o'tgan yilga nisbatan viloyatimizning barcha hududlarida o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkichlar Urganch shahri (2 991,8 ming. so'm), Gurlan (695,3 ming. so'm) Urganch (595,9 ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Xiva (182,9 ming. so'm), Qo'shko'pir (246,1 ming. so'm) va Bog'ot (260,4 ming. so'm) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko'rinishga ega:

## AHOLI JON BOSHIGA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

	Ming. soʻm	Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan, % da
<b>Viloyat</b>	<b>619,8</b>	<b>101,2</b>
<i>shaharlar:</i>		
<b>Urganch</b>	<b>2 991,8</b>	<b>90,5</b>
<b>Xiva</b>	<b>425,6</b>	<b>109,0</b>
<i>tumanlar:</i>		
<b>Bogʻot</b>	<b>260,4</b>	<b>92,8</b>
<b>Gurlan</b>	<b>695,3</b>	<b>143,1</b>
<b>Qoʻshkoʻpir</b>	<b>246,1</b>	<b>103,5</b>
<b>Urganch</b>	<b>595,9</b>	<b>108,2</b>
<b>Hazorasp</b>	<b>500,1</b>	<b>105,3</b>
<b>Xonqa</b>	<b>410,9</b>	<b>101,0</b>
<b>Xiva</b>	<b>182,9</b>	<b>104,2</b>
<b>Shovot</b>	<b>371,2</b>	<b>108,5</b>
<b>Yangiariq</b>	<b>516,0</b>	<b>108,4</b>
<b>Yangibozor</b>	<b>373,8</b>	<b>104,5</b>

Jumladan, 2020-yilning yanvar-fevral oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,5 % ni tashkil etib, 16 893,9 mln. soʻmga yetdi yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 7,9 % oʻsishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 96,4 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ulushiga toʻgʻri kelmoqda.


## ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2020-yil yanvar-fevral)

2020-yil yanvar-fevral oylarida viloyat boʻyicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 256 885,9 mln. soʻm (oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 93,8 %) ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida kichik biznes subyektlari hajmi 2020-yil yanvar-fevral oylari yakunlariga koʻra 207 608,7 mln. soʻmni tashkil etib, (oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 5,7 %) ga oshgan. Ushbu sektorining umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 80,8 % ni tashkil qilmoqda. Bu koʻrsatkich boshqa tumanlar bilan taqqoslaganda, Shovot, Yangiariq va Yangibozor tumanlarida (100,0 %) yuqori boʻlgan.

### YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, % da




Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasi ulushi 19,2 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarda eng yuqori ulush Urganch tumanida (36,8 %) va Urganch shahrida (18,8 %) kuzatildi.

## HUDUDLAR KESIMIDA ULGURJI SAVDO HAJMI

	Jami (mln. soʻm)	Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Yirik korxonalar (mln. soʻm)	Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik biznes subyektlari (mln. soʻm)	Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan, % da
<b>Viloyat</b>	<b>256 885,9</b>	<b>93,8</b>	<b>49 277,3</b>	<b>63,6</b>	<b>207 608,6</b>	<b>105,7</b>
<i>shaharlar:</i>						
<b>Urganch</b>	<b>98 614,0</b>	<b>108,8</b>	<b>18 540,6</b>	<b>119,7</b>	<b>80 073,4</b>	<b>106,6</b>
<b>Xiva</b>	<b>12 852,3</b>	<b>105,6</b>	<b>117,0</b>	<b>-</b>	<b>12 735,3</b>	<b>104,7</b>
<i>tumanlar:</i>						
<b>Bogʻot</b>	<b>4 774,4</b>	<b>106,3</b>	<b>2,7</b>	<b>112,6</b>	<b>4 771,7</b>	<b>106,3</b>
<b>Gurlan</b>	<b>5 842,9</b>	<b>109,4</b>	<b>38,7</b>	<b>8,7 m.</b>	<b>5 804,2</b>	<b>108,7</b>
<b>Qoʻshkoʻpir</b>	<b>846,0</b>	<b>103,9</b>	<b>10,3</b>	<b>84,6</b>	<b>835,7</b>	<b>104,2</b>
<b>Urganch</b>	<b>80 613,4</b>	<b>73,2</b>	<b>29 704,4</b>	<b>47,9</b>	<b>50 909,0</b>	<b>105,8</b>
<b>Hazorasp</b>	<b>5 828,0</b>	<b>105,3</b>	<b>7,1</b>	<b>94,2</b>	<b>5 820,9</b>	<b>105,3</b>
<b>Xonqa</b>	<b>16 535,0</b>	<b>109,4</b>	<b>823,6</b>	<b>91,4 m.</b>	<b>15 711,4</b>	<b>104,0</b>
<b>Xiva</b>	<b>6 582,0</b>	<b>105,1</b>	<b>25,3</b>	<b>2,3 m.</b>	<b>6 556,7</b>	<b>104,9</b>
<b>Shovot</b>	<b>7 397,7</b>	<b>104,5</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>7 397,7</b>	<b>104,5</b>
<b>Yangiariq</b>	<b>5 430,1</b>	<b>105,7</b>	<b>1,9</b>	<b>50,3</b>	<b>5 428,2</b>	<b>105,7</b>
<b>Yangibozor</b>	<b>11 570,1</b>	<b>103,1</b>	<b>5,7</b>	<b>9,0 m.</b>	<b>11 564,4</b>	<b>103,1</b>

## HUDUDLAR KESIMIDA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASINING OʻZGARISH SURʼATLARI, % da



Ulgurji tovar aylanmasida oʻtgan yilning shu davriga nisbatan eng yuqori oʻsish surʼatlari Gurlan tumani (109,4 %), Xonqa tumani (109,4 %) va Urganch shahrida (108,8 %) qayd etildi.